



**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc03/30.09.2020.K.82.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

QARSHI MUHANDISLIK - IQTISODIYOT INSTITUTI

XAYITOV JONIBEK KURBONOVICH

**BIS MOCHEVINA HOSILALARINI SINTEZI VA TEXNOLOGIYASINI
ISHLAB CHIQUISH, XOSSALARI VA ULARNING QO'LLANILISHI**

02.00.03-Organik kimyo

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2023

**Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по химическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
chemical sciences**

Хайитов Жонибек Курбонovich

Bis mochevina hosilalarini sintezi va texnologiyasini ishlab chiqish,
xossalari va ularning qo'llanilishi..... 5

Хайитов Жонибек Курбонovich

Разработка синтеза и технологии производных бисмочевины, их
свойства и применение..... 21

Khayitov Jonibek Kurbonovich

Development of synthesis and technology of bis urea derivatives,
properties and their application..... 39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 42

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR BERUVCHI
DSc03/30.09.2020.K.82.02 RAQAMLI ILMiy KENGASH**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

XAYITOV JONIBEK KURBONOVICH

**BIS MOCHEVINA HOSILALARINI SINTEZI VA TEXNOLOGIYASINI
ISHLAB CHIQISH, XOSSALARI VA ULARNING QO'LLANILISHI**

02.00.03-Organik kimyo

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida H2023.1.PhD/K593 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi muhandislik – iqtisodiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.cspi.uz.ilmiy-kengash) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mahsumov Abduxamid Gafurovich
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Turg'unov Erxon
kimyo fanlari doktori, dotsent

Abdug'ofurov Ibrohimjon Azizovich
kimyo fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi DSc.03/30.09.2020.K.82.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «29» IX soat 15⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.: (+998) 70-716-68-05, faks (+998) 70-716-68-11; e-mail: tvchdpi_k.kengash@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (301 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 111720, Toshkent viloyati Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel:(+998) 70-716-68-05, faks: (+998) 70-716-68-11; e-mail: tvchdpi_k.kengash@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «16» IX kuni tarqatildi.

(2023-yil «16» IX dagi 18 raqamli restr bayonnomasi).



O.E.Ziyadullayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, k.f.d., dotsent

G.Q.Otamuxamedova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, k.f.f.d. (PhD)

A.K.Abdushukurov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda organik sintez asosida biologik faol birikmalarini maqsadli sintezini amalga oshirish, ularni neft va gaz sanoatida, qishloq xo'jaligida, farmatsevtikada turli kasalliklarga qarshi preparatlar olishda muvaffaqiyatli qo'llash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shu sababdan bu borada arzon, yuqori samarali, ekologik toza, energiya tejamkor mahalliy preparatlar yaratish, ularning fizik - kimyoviy va biologik xossalari o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

Jahonda bis-mochevina yangi hosilalarini sintez qilib olish, turli sanoat texnologiyalari, qishloq xo'jaligida, tibbiyot sohasida, to'qimachilik sanoatida va boshqa ko'plab sohalarda qo'llanilishi yuzasidan keng qamrovli tadqiqotlar bajarilmoqda. Shu bilan ko'pchilik tadqiqotchilarni o'ziga jalb etib kelmoqda. Bu borada bis-mochevina hosilalarini sintez qilish usullari va ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish, ularning fizik-kimyoviy xossalari va faolliklarini tadqiq qilish sanoatda ular asosida yangi ingibitorlar, biologik faol biostimulyatorlar va ishlab chiqarish usullarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda yangi turdagi moddalarni ishlab chiqarish, mahsulotlar turlarini ko'paytirish, mahalliy bozorni import o'rini bosa oladigan kimyoviy noyob preparatlar bilan ta'minlash borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilib, raqobatbardosh, tabiiy hamda ularning sintez mahsulotlari asosida noyob xossalarga ega preparatlar yaratish borasida muhim natijalarga erishilmoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalarini va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish»¹ kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada aromatik aminli uglevodorodlarning mochevina va bis-mochevina hosilalari asosida neft-gaz, kimyo, to'qimachilik, farmatsevtika sanoati uchun yuqori samarali preparatlar yaratishga yo'naltirilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 29.10.2020 yildagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarda mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni, 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5368-son «O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi» to'g'risidagi Farmonlari va 10.10.2022 yildagi «Kimyo va gaz-kimyano sanoatini strategik rivojlantirishning maqsadli dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi PQ-388-son qarori, 2018-yil 20-oktabrdagi PQ-841-son «2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2020-yil 15-martdagi PQ-6079-son «Raqamli O'zbekiston -2030» Qarorlari hamda mazkur faoliyatga

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» Farmoni

tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bis-mochevinalar, ularning hosilalari asosida sanoatda, qishloq xo'jaligida biologik faol preparatlar olishda xom-ashyo, qo'shimcha mahsulotlar sifatida foydalanish bo'yicha keng doirada ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bis-mochevinalar va ular asosida olinadigan hosilalarini sintez qilish, maqsadli qo'llash va ishlab chiqarish bo'yicha K.B.Erjanov, V.A.Gravchikova, I.V.Negeli, Tran Kevin, N.E.Moroz, Masuda Akira, Satoh Yoshitaka, E.I.Goryunov, E.U.Nifantev, B.F.Myasoedov, Zolfigal Muhammad Ali kabi jahonga taniqli olimlar ilmiy tadqiqot olib borib, yangi bis-mochevina hosilalarini 30-50 °C gacha, ba'zida undan ham yuqoriroq, 49-87% chiqish unumi bilan sintez qilib olishgan. Sintez qilingan hosilalarni tibbiyot sohasida, farmatsevtika sanoatida va biologik faol moddalar sifatida qo'llanilishini organishganlar va bu yo'nalishni rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar.

Respublikamizda mazkur yo'nalishga A.G.Maxsumov, X.M.Shoxidoyatov, Yu.X.Xolboyev olimlar o'z ilmiy tadqiqot ishlari bilan izosianat, diizosianatlar asosida alifatik, aromatik aminlar birikishi natijasida mochevina hosilalarini yuqori unum bilan sintez qilish omillarini erituvchi va katalizatorga bog'liqligi hamda ular asosida yangi turdagi biostimulyator, bo'yoqlar, gerbisidlar va dori vositalari olish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borib, o'z hissalarini qo'shishgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalarini bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi muhandislik – iqtisodiyot instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining IK 30.06.2021 y. 11-son qarori bilan tasdiqlangan “Neft va gaz kimyoviy texnologiyasi, organik moddalar sintezi va ularning ekologik muammolari” mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bis-mochevinalarning yangi hosilalarini sintez qilish, kimyoviy tuzilishini isbotlash, kimyoviy xossalari, texnologiyasini ishlab chiqish hamda qo'llanish sohasini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

geksametilendiizosianat bilan difenilamin, azobenzolilamin, 2,2'-amino-azotoluol, aminonaftalin reaksiyalari asosida bis-mochevinalarni yangi hosilalarini sintez qilish va ularning yuqori unum bilan chiqishini turli omillarga bog'liqligini aniqlash;

bis-mochevina hosilalarini sintezida reaksiyaga kirishayotgan geksametildiizosianat bilan difenilamin, azobenzolilamin, 2,2'-amino-azotoluol, aminonaftalinlar o'zaro ta'sirlashuvini ehtimolli mexanizmini o'rganish;

sintez qilib olingan bis-mochevina hosilalarining tarkibi, tozaligi va kimyoviy tuzilishini zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullar yordamida isbotlash;

sintez qilib olingan bis-mochevina hosilalarini kimyoviy xossalarini o'rganish, ya'ni galogenlash, nitrozolash, metallash, alkillash reaksiyalarini olib borish;

geksametilendiizosianat bilan aromatik aminlar reaksiyasi natijasida bis-mochevina hosilalarini sintez qilish texnologiyasini ishlab chiqish;

sintez qilib olingan bis-mochevina hosilalarini qo'llanishi bo'yicha metallar korroziyalanishiga qarshi samarali ingibitorlik xossasini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida geksametilendiizosianat, azobenzolilamin, 2,2'-amino-azotoluol, difenilamin, 1-aminonaftalin (α -naftilamin), $(Et)_3N$ trietilamin, dimetilformamid olingan.

Tadqiqotning predmeti kimyoviy o'zgarishlar, nukleofil birikish, dinitrozolash, dialkillash, dinatriylash, dixlorlash reaksiyalari, shuningdek olingan mahsulotlarni fizik-kimyoviy va ingibitorlik xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar jarayonida organik sintez, rentgen fazaviy tahlil, spektroskopiya (IQ-, UB-, 1H va ^{13}C -YaMR), termogravimetrik tahlil, kvant-kimyoviy va matematik modellashtirish tadqiqod usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor geksametilendiizosianat bilan azobenzolilamin, 2,2'-amino-azotoluol, difenilamin, 1-aminonaftalin (α -naftilamin) reaksiyalari asosida bis-mochevinalarni yangi hosilalari olingan;

azobenzolilamin, 2,2'-amino-azotoluol, difenilamin, 1-aminonaftalinlarni nukleofil birikish reaksiyasi mexanizmi va reaksiyani olib borishning muqobil sharoitlari aniqlangan;

sintez qilib olingan bis-mochevina hosilalarining tarkibi, tozaligi va kimyoviy tuzilishini zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari, IQ-, UB-, 1H va ^{13}C -YaMR spektroskopiya hamda rentgen fazaviy, termogravimetrik tahlil usullari orqali isbotlangan;

bis-mochevina hosilalarini $NaNO_2$, CH_3ONa , CH_3I va $Ca(OCl)_2$ lar bilan almashinish reaksiyalarida, N-H guruhidagi «N» faol bo'lganligi uchun oson va yuqori unum bilan chiqishi kimyoviy tajribalar, kvant kimyoviy va matematik modellashtirish usullari orqali isbotlangan;

geksametilendiizosianat bilan aromatik aminlar reaksiyasi natijasida bis-mochevina hosilalarini sintez qilishning energiya tejankor, chiqindisiz texnologiyasi ishlab chiqilgan;

bis-mochevinalar hosilalari orasidan N,N'-geksametilen bis-[(1,1'-amino-azobenzolil)-mochevina] birikmasining ingibitor xususiyatiga ega ekanligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

geksametilendiizosianatni azobenzolilamin, difenilamin, 2,2'-amino-azotoluol va 1-aminonaftalin bilan nukleofil, birikish reaksiyalari natijasida bis-mochevinalar hosilalarini yuqori unumlar bilan sintez qilish usullari aniqlangan;

N,N'-geksametilen bis-[(1,1'-aminoazobenzolil)-mochevina] hosilalarini sintez qilib olishning texnologiyasi ishlab chiqilgan;

olingan N,N'-geksametilen bis-[(1,1'-aminoazobenzolil)-mochevina]ni yuqori faollikka ega bo'lgan hosilalarining neft va gazni qayta ishlash korxonalarini metal va po'lat qurilmalarining ishchi holatini oshiruvchi ingibitorlik xossalari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliliigi zamonaviy IQ-, UB-, ¹H-YaMR va ¹³C-YaMR spektroskopiya, mass spektrometriya, termogravimetrik tahlil, xromatografik (YQX, KX), rentgen tuzilish, kvant-kimyoviy, biologik va boshqa tadqiqot usullaridan olingan natijalar asosida ishonchli tarzda tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bis-mochevina hosilalarini past haroratlarda 35-45 °C, yuqori chiqish unumi 85-95% bilan sintez qilish jarayoni borishida erituvchilarning roli, nukleofil birikish va elektrofil o'rin almashishi reaksiyalari natijasida maqsadli sintez amalga oshirilganligi, hamda 20 ta yangi modda sintez qilinishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, bis-mochevina hosilalarini sintez qilishning yangi usullari ishlab chiqilgan, ilk bor geksametilendiizosianat bilan aromatik diazaminlar reaksiyasi natijasida bis mochevina hosilalari sintez qilingan, neft va gaz sanoatida inshoot metall konstruksiyalari va jihozlarida korroziyani hosil bo'lishini oldini olish, ya'ni korroziyalanish tezligini kamaytiruvchi samarador ingibitor sifatida qo'llanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning joriy qilinganligi: bis-mochevina hosilalarining samarali sintez usullari va qo'llanilishi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

sintez qilingan bis-mochevina hosilalari asosida olingan ingibitorlar "Sho'rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi" korxonasi amaliyotga joriy qilingan (Sho'rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi 2022-yil 21-sentyabrdagi OP 04/EM-3278 son ma'lumotnomasi). Natijada, neft va gaz sanoati inshootlari va metall qurilmalarini muhit pH=2 bo'lgandagi turli konsentratsiyalarda korroziya tezliklari 0,33-0,76 g/m²sga kamaytirishga, himoyalani darajalarini 58,8-85,7 % ga oshirish imkonini bergan;

sintez qilingan bis-mochevina hosilalari "Muborak gazni qayta ishlash zavodi"da ingibitor sifatida amaliyotga joriy etilgan (Muborak gazni qayta ishlash zavodi 2023-yil 27-martdagi 136-GK-03 son ma'lumotnomasi). Natijada, metall qurilmalari, asbob-uskunalari hamda po'lat konstruksiyalarni muhit pH=11 bo'lgandagi turli konsentratsiyalarda korroziya tezliklari 0,74-0,41g/m²sga kamaytirishga, himoyalani darajalarini 47,4-89 % ga oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari asosida jami 14, jumladan, 7 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 5 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 2 ta maqola respublika, 2 ta maqola xorijiy jumallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 96 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati, maqsadi va vazifalari asoslangan, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Bis-mochevinalar sintezini hozirgi kundagi zamonaviy holati**» deb nomlangan birinchi bobida, geksametilendiizosianatlarining fizik-kimyoviy xossalari va ular asosidagi olingan birikmalarning qo'llanilishi, aromatik aminlarning reaksiya qobiliyati va ular ishtirokida olinuvchi moddalarning xossalari va ishlatilishi, mochevinalarni sintez qilib olish usullari va uning ahamiyatiga oid ma'lumotlar keltirilgan. Dunyo adabiyotlari ichida mono- va diizosianatlar juda kam miqdorda OH, HN< va R-NH₂ lar bilan ish bajarilgan. Bajarilgan ishlar orasida spirtlar, fenollar, aromatik aminlar va boshqalar bilan ta'sirlashuvi bayon etilgan. Reaksiyalarni suvsizlantirilgan benzol, atseton, toluol, dioksan, tetragidrofuran hamda trietilamin asoslari ishtirokida 3-24 soat davomida olib borilgan. Harorat 30-50 °C gacha, ba'zida undan ham yuqoriroq, mochevinalarni chiqish unumi 49 - 87% ni tashkil etadi.

Diizosianatlar va aromatik aminlar diazo-aromatik aminlar bilan bajarilgan ilmiy ishlar deyarli uchramadi yoki olib borilmagan, biroq poliuretanlar olish maqsadida diizosianatlar va geterosiklik-diazo-aminlar bilan kamdan kam ish olib borilgan

Dissertatsiyaning «**Ishlatiladigan boshlang'ich moddalar, bis-mochevinalarning ehtimoliy mexanizmi, sintezi va fizik tahlil usullari**» deb nomlangan ikkinchi bobida, sintez qilingan birikmalarning tuzilishini o'rganish uchun ishlatiladigan reaktivlar, tadqiqot usullari, bis-mochevinalarni sintez qilib olish, bis-mochevinalarning kimyoviy xossalari o'rganish haqida ma'lumotlar keltirilgan. Dissertatsiyaning ushbu bobida ishlatiladigan reagentlarning fizik-kimyoviy xossalari keltirilgan. Sintez qilinadigan moddalarning laboratoriya sharoitida olinish usullari, sharoitlari keltirilgan.


Kvant kimyoviy hisob-kitoblarga asoslanib, R-N=C=O molekulasida o'rinbosar almashtirilganda -N=C=O guruh atomlaridagi zaryad zichligi o'zgaraydi, deb faraz qilinadi. O'rinbosarlarning izosianatlarning reaktivligiga ta'siri izosianatlar guruhidagi bog'lar uzunligining o'zgarishi yoki diizosianatlarga nukleofil birikish reaksiyalarida (A_N) o'tish holatining turli xil barqarorlashuvi bilan izohlanadi.



Ilmiy tadqiqodchilarning ilmiy tadqiqotlari natijalaridan ma'lumki, $\overset{\ominus}{\text{N}}-\overset{\oplus}{\text{C}}-\overset{\ominus}{\text{O}}$ guruhini reaksiya qobiliyati uning elektron tuzilishi orqali aniqlanadi. Bunda ko'proq $-\text{N}=\text{C}$ va $>\text{C}=\text{O}$ bog'larini nisbiy reaksiya qobiliyati muhimligini hisobga olinganda $-\text{N}=\text{C}$ va $>\text{C}=\text{O}$ bog'larining tartibli reaksiya qobiliyati sifatida va N, C=O va O atomlarining esa to'liq π -elektron zaryadlaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki aynan shu omillar nukleofil birikish (A_N) reaksiyalarida bog'larni reaksiya qobiliyatini belgilaydi.

Dissertatsiyaning «**Bis-mochevinalarining tuzilishi, fizik-kimyoviy xossalari va ularning tahlili**» deb nomlangan uchinchi bobida N,N'-geksametilen bis-[(1,1'-amino-azobenzolil)-mochevina]-mochevinani sintez qilib olish olish va xossalarni o'rganish, bis-mochevinalarni sintez qilib olishda reaksiya unumiga turli xil omillarni bog'liqligini o'rganish, bis mochevina hosilalari kimyoviy xossalari, bis-mochevina birikmalarining elektron tuzilishi va kvant kimyoviy hisoblarini o'rganish haqidagi ma'lumotlar bayon qilingan. Izlanishlarimiz davomida, geksametilendiizosiyanat bilan aminoazobenzolning o'zaro ta'siri natijasida N,N'-geksametilen bis-[(1,1'-amino-azobenzolil)-mochevina] sintez qilib olindi.

Sintez quyidagi sxema bo'yicha amalga oshirildi (bu eng tejamkor usul):



Birinci marta sintez qilingan mahsulotlar, (I) N,N'-geksametilen bis-[(1,1'-amino-azobenzolil)-mochevina] sariq rangda, (II) N,N'-geksametilen bis-[2,2'-amino-azotoluolil)-mochevina] qo'ng'ir rangda, (III) N,N'-geksametilen bis-[(1,1'-aminodifenil)-mochevina] qora rangda, (IV) N,N'-geksametilen bis-[(1,1'-aminonaftalin)-mochevina] pushti rangdagi moddalar bo'lib, agregat holati kristall. Suvda kam eriydi va organik erituvchilarda (DMAc, DMSO, DMFA, piridin, HCOOH, CCl₄ va boshqalar) oson eriydi. Sintez qilib olingan I-IV-moddalarning fizik xossalari jadvalda keltirilgan (1-jadvalga qarang).

Sintez qilingan birikmalarning fizik-kimyoviy xossalari

№	Nomi	Mahsulot unumi, %	T _{eritilish} , °C	R _f	Brutto formulasi	Element analiz, N, %	
						Hisoblandi	Topildi
I	N,N'-Geksametilen bis-[(1,1'-amino-azobenzolil)-mochevina]	92,4	235-255	0,60	C ₃₂ H ₃₄ N ₈ O ₂	19,14	19,10
II	N,N'-Geksametilen bis-[2,2'-amino-azotoluolil)-mochevina]	91,0	158-160	0,60	C ₃₀ H ₄₂ N ₈ O ₂	18,10	18,04
III	N,N'-Geksametilen bis-[(1,1'-aminodifenil)-mochevina]	93,6	184-185	0,65	C ₃₂ H ₃₄ N ₄ O ₂	19,15	19,07
IV	N,N'-Geksametilen bis-[(1,1'-aminonaftalin)-mochevina]	86,2	114-115	0,60	C ₂₄ H ₂₀ N ₄ O ₆	20,06	19,99

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Bis- (-N=C=O) guruhi tuzilishiga va diizosianat molekularini ham statistik ham dinamik holatidagi elektron zichligini taqsimlanishiga bog'liq, mana shu omillar ko'pincha diizosianat kirishadigan reaksiyalar tabiatini, eruvchanligini xossalari belgilaydi. Ilmiy tadqiqotchilarning ilmiy tadqiqotlari natijalaridan ma'lumki, $\overset{\ominus}{\text{N}}=\overset{\oplus}{\text{C}}=\overset{\oplus}{\text{O}}$ guruhini reaksiya qobiliyati uning elektron tuzilishi orqali aniqlanadi.

Sintez qilib olingan N,N'-geksametilen bis-[(1,1'-amino-azobenzolil)-mochevina] va biz-mochevina hosillarini (I-IV) strukturasi isbotlash uchun (YaMR, IQ-, UB-) spektroskopiya, rentgen fazaviy, termogravimetrik tahlil usullaridan foydalanildi.

Sintez qilib olingan I-IV maddalarni YaMR ¹H CDCl₃ muhitda 400 MHz, ¹³C CDCl₃ muhitda 400 MHz ppm spektrlari olindi va quyidagicha tahlil qilindi.




1-rasm. N,N'-geksametilen bis [(1,1'-amino-azobenzolil)-mochevina] ¹H va ¹³C YaMR – spektri

N,N'-geksametilen bis [(1,1'-amino-azobenzolil)-mochevina] ¹H-YaMR (CDCl₃), 400.1 MHz) NMR: δ 1.25 (4H, t, J= 7.0, 6.8 Hz), 2.253 (4H, t, J= 7.2, 6.8 Hz), 2.682 (4H, t, J= 8.1, 7.2, Hz), 4.049 (dt, J= 2.7, 1.4 Hz), 7.851 (18H dt, J=

8.7, 0.5 Hz), 7.824 (d, $J= 8.7, 2.7, 0.5$ Hz), 7.802 (d t, $J= 8.7, 1.5, 0.5$ Hz), 7.48 (t, $J= 8.7, 1.5, 0.5$ Hz), 7.39 (t, $J= 8.1, 7.7, 1.4, 0.5$ Hz), 7.255 (t, $J= 8.1, 7.7, 1.4, 0.5$ Hz), 6.752 (d, $J= 7.7, 1.3$ Hz), 6.730 (d, $J= 7.7, 1.3$ Hz). ^{13}C NMR: δ 17.55-17.68 (2C, 17.5 (s), 17.6 (s)), 29.3-29.4 (2C, 29.4 (s), 29.4 (s)), 40.1-40.1 (2C, 40.1 (s), 40.1 (s)), 116.6-116.7 (4C, 116.6 (s), 116.6 (s)), 122.2-122.3 (4C, 122.2 (s), 122.2 (s)), 124.2-124.3 (4C, 124.2 (s), 124.2 (s)), 127.8-127.8 (2C, 127.8 (s), 127.8 (s)), 128.1-128.3 (4C, 128.2 (s), 128.2 (s)), 134.1-134.3 (2C, 134.2 (s), 134.2 (s)), 149.5-149.6 (2C, 149.5 (s), 149.5 (s)), 153.3-153.4 (2C, 153.3 (s), 153.3 (s)), 154.5-154.7 (2C, 154.6 (s), 154.6 (s)).

Sintez qilingan bis-mochevina hosilalarining H-N< reaksiya markazining kimyoviy xossalarini o'rganish uchun ularni N,N'-digalogenlash, N,N'-dinitrozalash, N,N'-dinatriylash va N,N'-diakillash ishlari olib borildi.

Alyuminiy oksidi ustida kalsiy gipoxlorit bilan bis-mochevina hosilasini N,N'-dixlorlash uchun samarali, arzon, barqaror va ekologik toza usulni ishlab chiqib, kalsiy gipoxloritni suyuq Al_2O_3 muhitida ta'sir ettirildi:



Reaksiya unumi 91,4%; $T_{\text{suyq}}=203-204$ °C.


2-jadval

Sintez qilib olingan bis mochevina hosilalarining N,N'-dixlorli birikmalarining fizik-kimyoviy tavsiflari

№	Nomi	Mahsulot unumi, %	T_{suyq} °C	R_f	Brutto formulasi
V	N,N'-Geksametilen bis-[(1,1'-amino-azobenzolil)-mochevina] N,N'-dixlor	91,4	203-204	0,62	$\text{C}_{32}\text{H}_{32}\text{N}_6\text{O}_2\text{Cl}_2$
VI	N,N'-Geksametilen bis-[2,2'-amino-azotoluolil)-mochevina] N,N'-dixlor	89,6	189-190	0,66	$\text{C}_{36}\text{H}_{40}\text{N}_6\text{O}_2\text{Cl}_2$
VII	N,N'-Geksametilen bis-[(1,1'-aminodifenil)-mochevina] N,N'-dixlor	93,6	196-197	0,58	$\text{C}_{32}\text{H}_{32}\text{N}_4\text{O}_2\text{Cl}_2$
VIII	N,N'-Geksametilen bis-[(1,1'-aminonaftalin)-mochevina] N,N'-dixlor	86,4	148-149	0,55	$\text{C}_{28}\text{H}_{28}\text{N}_4\text{O}_2\text{Cl}_2$

N,N'-geksametilen bis-[(1,1'-amino-azobenzolil)-mochevina] N,N'-dixlor-almashtirilgan tuzilishini isbotlash uchun AgNO_3 bilan klassik sifat reaksiyasi o'tkazildi.

Bu usul orqali N,N'-geksametilen bis-[2,2'-amino-azotoluolil]-mochevina], N,N'-geksametilen bis-[(1,1'-aminodifenil)-mochevina], N,N'-geksametilen bis-[(1,1'-aminonaftalin)-mochevina]larning N,N' -dixlorlash reaksiyalari olib borildi. Sintez qilingan bis-mochevina hosilalarining dixlorli birikmalarining (V-VIII) xossalari yuqoridagi jadvalda keltirilgan (2-jadvalga qarang).



Bu erda: $\text{NaNO}_2 + \text{HCOOH} \rightleftharpoons \text{H}_2\overset{\oplus}{\text{N}}\text{O}_2 \rightleftharpoons \overset{\oplus}{\text{N}}\text{O} + \text{HCOONa} + \text{H}_2\text{O}$ hosil qiladi.

Sintez qilingan (I, II, III, IV)-mochevina hosilalarini N,N' -dinitrozolash reaksiyasi. $\overset{\oplus}{\text{N}}\text{O}$ nitrozo hujum qiluvchi agent. Eng keng tarqalgan nitrozolash tiruvchi vosita bo'lgan azot kislotasi erkin shaklda mavjud emasligi sababli, jarayonni amalga oshirish uchun natriy nitrit va chumoli kislotasi (HCOOH) dan foydalanildi.


Bu usul orqali N,N'-geksametilen bis-[2,2'-amino-azotoluolil]-mochevina], N,N'-geksametilen bis-[(1,1'-aminodifenil)-mochevina], N,N'-geksametilen bis-[(1,1'-aminonaftalin)-mochevina]larning N,N'-dinitrozolash reaksiyalari olib borildi. Sintez qilingan bis-mochevina hosilalarining dinitrozoli birikmalarining (IX-XII) xossalari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Sintez qilib olingan bis mochevina hosilalarining N,N'-dinitrozo birikmalarining fizik-kimyoviy tavsiflari

№	Nomi	Mahsulot unumi, %	T _{siyuyq} °C	R _f	Brutto formulasi
IX	N,N'-dinitrozo N,N'-Geksametilen bis-[(1,1'- amino-azobenzolil)-mochevina]	90,3	240-245	0,73	C ₃₂ H ₃₂ N ₁₀ O ₄
X	N,N'-dinitrozo N,N'-Geksametilen bis-[2,2'- amino-azotoluolil)-mochevina]	85,7	255-260	0,68	C ₃₆ H ₄₀ N ₆ O ₄
XI	N,N'-dinitrozo N,N'-Geksametilen bis-[(1,1'- aminodifenil)-mochevina]	88,5	239-240	0,66	C ₃₂ H ₃₄ N ₆ O ₄
XII	N,N'-dinitrozo N,N'-Geksametilen bis-[(1,1'-aminonaftalin)-mochevina]	86,8	224-225	0,57	C ₂₄ H ₂₆ N ₆ O ₄

N,N'-Geksametilen bis-[(1,1'-amino-azobenzolil)-mochevina]ni natriy hosilalarini sintez qilishda metil spirtning natriyli tuzini ta'sir qildirib olindi. Bunda bis-mochevina tarkibidagi "N-H" guruhi reaksiyaning faol markazi bo'lib natriy metallari aynan shu guruhga kelib birikishi kuzatildi.




Bu usul orqali N,N'-geksametilen bis-[2,2'-amino-azotoluolil)-mochevina], N,N'-geksametilen bis-[(1,1'-aminodifenil)-mochevina], N,N'-geksametilen bis-[(1,1'-aminonaftalin)-mochevina]larning N,N'-dinatriylash reaksiyalari olib borildi.

4-jadval

Sintez qilib olingan bis-mochevina hosilalarining N,N'-dinatriy birikmalarining fizik-kimyoviy tavsiflari

№	Nomi	Mahsulot unumi, %	T _{uyuq} °C	R _f	Brutto formulasi
XIII	N,N'-dinatriy N,N'-Geksametilen bis-[(1,1'- amino-azobenzolil)-mochevina]	70	270-275	0,61	C ₃₂ H ₃₂ N ₄ O ₂ Na ₂
XIV	N,N'-dinatriy N,N'-Geksametilen bis-[2,2'- amino-azotoluolil)-mochevina]	72	155-160	0,64	C ₃₆ H ₄₀ N ₄ O ₂ Na ₂
XV	N,N'-dinatriy N,N'-Geksametilen bis-[(1,1'- aminodifenil)-mochevina]	71	184-185	0,63	C ₃₂ H ₃₂ N ₄ O ₂ Na ₂
XVI	N,N'-dinatriy N,N'-Geksametilen bis-[(1,1'- aminonaftalin)-mochevina]	74	110-115	0,58	C ₂₄ H ₂₆ N ₄ O ₂ Na ₂

N,N'-geksametilen bis-[(1,1'-amino-azobenzolil)-mochevina]larning hosilalarini alkilash N,N'-geksametilen bis-mochevina xosilalarini alkilash "N-H" guruhining reaksiyaga kirish qobiliyati yuqori bo'lganligi uchun, (-CH₃) radikali N,N'-holatda birikishi kuzatildi.



Alkillash reaksiyalari mochevina sohasidagi N,N'- azot atomi bo'yicha borishi bu atom yonida karbonil guruhi borligi uchun vodorod atomi nisbatan oson


dissosiyalanishi bilan tushuntiriladi. N,N'-geksametilen bis-[2,2'-amino-azotoluolil)-mochevina], N,N'-geksametilen bis-[(1,1'-aminodifenil)-mochevina], N,N'-geksametilen bis-[(1,1'-aminonaftalin)-mochevina]larning N,N'-dimetilli hosilalari fizik-kimyoviy tavsiflari 5-jadvalda ko'rsatilgan.

5-jadval

Sintez qilib olingan bis-mochevina hosilalarining N,N'-dimetilli birikmalarining fizik-kimyoviy tavsiflari

№	Nomlanishi	Mahsulot unumi, %	T _{mayun} , °C	R _f	Ibrutto formulasi
XVII	N,N'-dimetil N,N'-geksametilen bis-[(1,1'-amino-azobenzolil)-mochevina]	80,4	227-235	0,63	C ₃₄ H ₃₈ N ₄ O ₂
XVIII	N,N'-dimetil N,N'-geksametilen bis-[2,2'-amino-azotoluolil)-mochevina]	78,5	155-160	0,66	C ₃₈ H ₄₆ N ₄ O ₂
XIX	N,N'-dimetil N,N'-geksametilen bis-[(1,1'-aminodifenil)-mochevina]	83,3	184-185	0,62	C ₃₄ H ₃₈ N ₄ O ₂
XX	N,N'-dimetil N,N'-geksametilen bis-[(1,1'-aminonaftalin)-mochevina]	82,6	110-115	0,65	C ₂₆ H ₃₀ N ₄ O ₆

Kvant kimyosi usullari yordamida olingan natijalar o'rganilayotgan molekullarning elektron zaryad zichligi, umumiy energiyasi, hosil bo'lish energiyasi, hosil bo'lish issiqligi, elektron energiyasi, yadro energiyasi va dipol momentining taqsimlanishi haqida muhim ma'lumotlarni beradi.



(a)



(b)



2-rasm. N,N'-geksametilen bis-[(1,1' amino-azobenzolil)-mochevina]ning 3D fazoviy strukturasi (a), elektron bulutlarning taqsimlanishi (b), molekullarda elektron zichligi taqsimoti (c)


6-jadval

Sintez qilingan birikmalarning kvant-kimyoviy hisoblashlari

№	Umumiy energiyasi, kkal/mol	Hosil bo'lish energiyasi, kkal/mol	Issiqlik energiyasi, kkal/mol	Elektron energiyasi, kkal/mol	Yadro energiyasi, kkal/mol	Kislород atomi zaryadi	Dipol momenti (D)
I	-142888.4	-8133	130.16	-1410275	1267386.6	-0.377-0.395	4.35
II	-165396	-10732.6	-118.7	-1870953.0	1705557.3	-0.388-0.397	1.867
III	-127930	-7713.06	98	-1200975.6	1073046.0	-0.376-0.393	4.318
IV	-115538.6	-6788.2	130.86	-1082970.2	967431.6	0.366 0.388	4.944

Bis mochevina hosillari sintezi jarayonini matematik modellashtirish

Bis mochevina hosillarini sintezi jarayonining matematik modelini tuzish uchun reaksiya unumiga ta'sir etuvchi omillar sifatida erituvchi, harorat va reaksiya davomiyligi tanlab olindi (7-jadvalga qarang). Tajriba natijalariga ko'ra olingan natijalar asosida kiruvchi ma'lumotlar sifatida quyidagi qiymatlar jadvali yaratildi. Erituvchi tabiatini o'zaro bir-biriga qonuniy bog'lash imkoniyati bo'lmagani tufayli ikki erituvchi uchun alohida matematik model yaratildi.



3-rasm. Harorat va reaksiya davomiyligining N,N'-geksametilen bis-mochevinalarning reaksiya unumiga ta'siri natijalari va matematik modellashtirish orqali olingan ikonogrammalari

Bis mochevina hosilalarini sintez qilishda haroratga, erituvchiga va vaqtga bog'liqligini taqqoslash jadvali


Harorat, °C	Mahsulot unumi, %	
	Erituvchi DMFA	Erituvchi piridin
Reaksiya davomiyligi, 1 soat		
25	17,1	15,6
30	27,8	24,8
40	38,5	33,0
45	46,2	44,8
Reaksiya davomiyligi, 2 soat		
25	46,2	44,8
35	53,0	49,2
40	61,7	52,5
45	69,6	57,7
Reaksiya davomiyligi, 3 soat		
25	66,3	50,3
35	84,3	57,2
40	90,4	73,6
45	91,5	75,8
Reaksiya davomiyligi, 4 soat		
25	67,4	51,7
35	86,2	59,3
40	92,3	76,8
45	92,4	78,5

Dissertatsiyaning «N,N'-geksametilen bis-[(1,1'-amino-azobenzolil)-mochevina]ni ishlab chiqarish texnologiyasi va qo'llanish sohalari» deb nomlangan to'rtinchi bobida N,N'-geksametilen bis-[(1,1'-amino-azobenzolil)-mochevina]ni olishni ishlab chiqilgan energiya tejamkor texnologik jarayoni hamda bis- mochevina hosilalarining qo'llanilish sohalari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Texnologik sxemasi va jarayonining bayoni

Reaktor ichki qismida kislorod va namlik bo'lmasligi uchun 11 azot stansiya orqali azot gazi uzluksiz berib turiladi. 1, 2, 3, 4 - reagentlar saqlovchi idishlaridan o'lchov idishlari orqali amino-azobenzolil, erituvchi DMFA, trietilamin katalizator trietilamin (C₂H₅)₃N, geksametilendiizosianat o'lchov qurilmalriga beriladi, 5, 6, 7- da o'lchangan aminoazobenzolil, erituvchi DMFA, trietilamin katalizator trietilamin (C₂H₅)₃N reaktorga beriladi va aralashtirgich yordamida aralashtirib turiladi. O'lchov qurilmasi 8-dan o'lchangan geksametilendiizosianat tomchilatib berish qurilmasi 9-orqali reaktorga 10-ga beriladi. Reaktor tashqi qismidan bug' berib reaksiya temperaturasi ushlab turiladi. Reaktorning yuqori qismidan reaksiya natijasidan hosil bo'lgan uchuvchi gaz faza chiqib 12-suv bilan sovutilib, 13, 14-yig'gich idishlarda yig'iladi. Reaksiya mahsuloti reaktor ostidan chiqib 15-suv bilan yuvish qurilmasida 16-distillangan suv idishidan kelib turgan suv bilan yuviladi va ajratilgan mahsulot 19-quritish qurilmasida quritiladi va kristall holda 17-qadoqlash qurilmasiga beriladi. Cho'kma 15-yuvish qurilmasidan

chiqqan aralashma 18-filtrga beriladi, filtdan chiqqan qoldiq reaksiyaga kirmay qolgan moddalar 20-yig'gich qurilmaga o'tadi u erdan 21-harorat me'yorlanib yana reaktorga beriladi.



4-rasm. N,N'-geksametilen bis -[(1,1'-amino-azobenzolil)-mochevina] XJK-1ni ingibitor sifatida olish texnologik sxemasi

1, 2, 3, 4-reagentlar saqlash rezervuarlari; 5, 6, 7, 8 o'lchov me'yorlagichlar, 9-tomchilab uzatgich, 10-reaktor, 11-azot haydash stansiyasi, 12-sovitgich, 13, 14, 15-filtr, 16-suv filtr, 17-quritish qurilmasi, 18-vakuum filtr, 19- qadoqlash qurilmasi, 20- yig'gich idish, 21-kondensator lavushka

Bis-mochevina hosilalarini metallar korroziyasiga ingibitor sifatida qo'llanilishi. Bis-mochevina hosilalarini metallar korroziyasiga ingibitor konsentratsiyasi, pH muhiti va temperaturaga ta'siri tadqiq qilindi. Ishqoriy muhit pH=9 bo'lganida esa, **I**-modda (0,1 mass. %) ingibitori ishtirokida himoyalaniş darajasi 92,2 %, **II**-modda (0,1 mass. %) ingibitori ishtirokida himoyalaniş darajasi 87,6 % ni tashkil etdi.

Tajriba-sinovlari gravimetrik usulda pH 2 dan 11 gacha bo'lgan muhitda, 40 °C haroratda olib borildi. Olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan. Metallar korroziyasi tezligini kamaytiruvchi ingibitor sifatida o'rganilib tadqiqot tajribalari o'tkazildi. St.3 markali po'latga sintez qilingan ingibitorlarning ta'siri turli pH muhitlarida, preparatning har xil konsentratsiyalarida 24 soat vaqt mobaynida amalga oshirildi. Sinovlar natijalariga ko'ra, o'rganilayotgan **I**-(N,N'-geksametilen bis-[(1,1' amino-azobenzolil)-mochevina]), **II**-N,N'-geksametilen bis-[2,2' amino-azotoluolil)-mochevina] preparatlari ishtirokidagi pH muhitni 2 dan 11 gacha ortishi bilan, kislotali va ishqoriy muhitda metallar korroziya darajasi ingibitor konsentratsiyasi ortishi korroziya tezligini kamaytirdi va himoya darajasini oshirdi (8-jadvalda keltirilgan).

Metallar korroziya darajasi va ingibitor konsentratsiyasi

№	Ingibitor nomi va mass. ulushi %	pH muhit							
		2		5		9		11	
		KT g/m ² s	HD %						
1	Ingibitorsiz	1.8	-	1.8	-	1.89	-	1.09	-
2	I (0,02%)	0.76	58.8	0.63	65,5	0.71	52,9	0.74	47.4
3	I (0,05%)	0.48	79.1	0.35	80.8	0.41	85.2	0.46	84.0
4	I (0,1%)	0.33	85.7	0.29	89.3	0.30	92.2	0.41	89.0
5	II (0,02%)	0.84	56.2	0.48	62.6	0.72	47.5	0.77	44.6
6	II (0,05%)	0.56	77.4	0.36	79.3	0.43	79.8	0.45	76.3
7	II (0,1%)	0.42	83.5	0.38	86.4	0.35	87.6	0.44	84.9
8	"Kvatramin-1001"	0.62	82.8	0.55	85.2	0.51	87.4	0.52	86.7

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, turli xil muhitda ingibitor miqdorini ortishi metallarni korroziyasining bir necha marta pasayishiga olib keldi va natijalar amaliyotga joriy etildi.

XULOSA

1. Geksametilendiizosianat bilan difenilamin, azobenzolilamin, 2,2'-amino-azotoluol, aminonaftalin reaksiyalari asosida bis-mochevinalarning yangi hosilalarini sintez qilindi va ularning yuqori unum (85-94%) bilan chiqishi turli omillarga temperatura (40-45 °C), erituvchi muhitiga bog'liqligi aniqlandi.

2. Bis-mochevina hosilalarini sintezida reaksiyaga kirishayotgan geksametilendiizosianat bilan difenilamin, azobenzolilamin, 2,2'-amino-azotoluol, aminonaftalinlar o'zaro ta'sirlashuvining ehtimolli mexanizmi o'rganildi.

3. Sintez qilib olingan bis-mochevina hosilalarining tarkibi, tozaligi va kimyoviy tuzilishini zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari – IQ-, UB-, YaMR, va rentgenofazaviy spektroskopiya orqali moddalarni tuzilishi isbotlandi;

4. Sintez qilib olingan bis-mochevina hosilalarini kimyoviy xossalarni o'rganildi, bunda; dixlorlash, dinitrozolash, dinatriylash, dimetillash reaksiyalari olib borildi. Bis-mochevina guruhining geksametilen tarafdagi "N-H" reaksiyon markazi yuqoriligi sababli N,N' holatda birikishi kuzatildi.

5. Bis-mochevina hosilalaridan N,N'-geksametilen bis-[(1,1'-amino-azobenzolil) mochevina] sintez qilish texnologiyasi ishlab chiqildi.

6. Sintez qilib olingan bis-mochevina hosilalarini orasidan metallar korroziyalanishiga qarshi samarali ingibitorlik xossalari o'rganildi (I moddaning 0,1% eritmasi pH 2 muhitida KT-0,33 g/m²s gacha kamaytirdi, HD-85,7% gacha oshirdi, muhit pH=11 bo'lganda turli konsentratsiyalarda korroziya tezliklari 0,74-0,41 g/m²sga kamaytirdi, himoyalani darajalarini 47,4-89 % oshirdi) va import qilinib olinayotgan ingibitor o'zini bosa olishi isbotlandi va amaliyotga joriy qilindi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.09.2020.K.82.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ЧИРЧИКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ПЕДАГОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

КАРШИНСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

ХАЙТОВ ДЖОНИБЕК КУРБОНОВИЧ

**РАЗРАБОТКА СИНТЕЗА И ТЕХНОЛОГИИ ПРОИЗВОДНЫХ
БИСМОЧЕВИН, ИХ СВОЙСТВА И ПРИМЕНЕНИЕ**

02.00.03- Органическая химия

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PHD) ПО
ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

ЧИРЧИК – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Министерстве высшего образования науки и инноваций Республики Узбекистана комиссии за номером B2023.1.PHD/K593

Диссертация выполнена в Каршинский инженерно-экономическом институте.
Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.cspi.uz.ilmiy-kengash) и на Информационно-образовательном портале «Ziyouet» по адресу (www.ziyouet.uz)

Научный руководитель:

Махсумов Абдухамид Гафурович
доктор химических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Тургунов Эрхан
доктор химических наук, доцент

Абдугофуров Ибрагимжон Азизович
доктор химических наук, профессор

Ведущая организация:

Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

Защита диссертации состоится «29» 1X 2023 г. в «15⁰⁰» часов на заседании Научного совета DSc.03/30.09.2021.K.82.02 по присуждению учёных степеней при Чирчикском государственном педагогическом университете. (Адрес: 111720, Ташкентская область, г. Чирчик, ул. Амира Темура, дом 104. Тел.: (+998) 70-716-68-05; факс: (+998) 70-716-68-11; e-mail: tvchdri_k/kengash@umail.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Чирчикского государственного педагогического университета. Адрес: Адрес: 111720, Ташкентская область, г. Чирчик, ул. Амира Темура, дом 104. Тел.: (+998) 70-716-68-05; факс: (+998) 70-716-68-11 (зарегистрирована за №301)

Автореферат диссертации разослан «16» 1X 2023 года

Реестр протокола рассылки № 18 от «16» 1X 2023 года.



О.Э.Зиядуллаев

Председатель научного совета
по присуждению ученой степени,
д.х.н., доцент

Г.К.Отамухамедова

Ученый секретарь научного совета по
присуждению ученой степени,
д.ф.х.н. (PhD) по химии

А.К.Абдушукуров

Председатель Научного семинара при научном
совете по присуждению ученой степени,
д.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ аннотация диссертации доктора философии (PhD)

Актуальность и востребованность темы диссертации. В настоящее время в мире одним из важнейших вопросов является целенаправленный синтез биологически активных соединений на основе органического синтеза, их успешное использование в сельском хозяйстве и фармацевтике для получения препаратов против различных заболеваний. В связи с этим важное значение имеет создание дешевых, высокоэффективных, экологически чистых, энергосберегающих местных препаратов, изучение их физико-химических и биологических свойств.

В мире ведутся обширные исследования по синтезу новых производных бис-мочевины, их использованию в различных промышленных технологиях, сельском хозяйстве, медицине, текстильной промышленности и многих других областях. В связи с этим особое внимание уделяется созданию методов синтеза и технологий получения производных бис-мочевины, исследованию их физико-химических свойств и активности, совершенствованию новых ингибиторов, биологически активных биостимуляторов и методов получения на их основе.

В Республике ведется большая работа по производству новых видов веществ, увеличению видов продукции, обеспечению местного рынка уникальными импортозамещающими химическими препаратами, достигаются немаловажные результаты по созданию препаратов с уникальными свойствами на основе конкурентоспособных, природных и синтезированных из них продуктов. В стратегии развития нового Узбекистана определены важные задачи, как «широкое внедрение инноваций в экономику, развитие кооперационных связей промышленных предприятий и научных учреждений»². В связи с этим актуальны научно-практические исследования, направленные на создание высокоэффективных препаратов для нефтегазовой, химической, текстильной и фармацевтической промышленности на основе производных ароматических аминоуглеводородов мочевины и бис-мочевины.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указе Президента Республики Узбекистан № УП-6097 от 29.10.2020 «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года», № УП-60 от 28 января 2022 года «О новой стратегии развития Республики Узбекистан на 2022-2026 годы», № УП-5368 от 30 октября 2019 года «Концепция охраны окружающей среды Республики Узбекистан до 2030 года», Постановления Президента Республики Узбекистан №ПП-388 от 10 октября 2022 года «Об утверждении целевой программы стратегического развития химической и газохимической промышленности», №ПП-841 от 20 октября 2018 года «О мерах по реализации национальных целей и задач в области устойчивого развития до

² Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года УП-60 «О новой стратегии развития Республики Узбекистан на 2022-2026 г оды»

2030 года», №ПТ-6079 от 15 марта 2020 года «Цифровой Узбекистан-2030», а также других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

Соответствие исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий в Республике. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики «Химические технологии и нанотехнологии».

Степень изученности проблемы.

В широком масштабе ведутся научно-исследовательские работы по получению сырья и вторичных продуктов при производстве биологически активных препаратов, применяемых в промышленности и сельском хозяйстве на основе бис-мочевины и их производных. Научные исследования по синтезу, целевом использовании и производстве бисмочевины и их производных велись мировыми учеными как К.В.Ержанов, V.A.Gravchikova, I.V.Negeli, Tran Kevin, N.E.Moroz, Masuda Akira, Satoh Yoshitaka, E.I.Goryunov, E.U.Nifantev, B.F.Myasoedov, Zolfigal Muhammad Ali, которые синтезировали новые производные бисмочевины при температуре 30-50 °С, а иногда и выше, с выходом 49-87%.

